Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi delegatsiyasining O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga tashrifi

Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti S.Sh.Jeenbekovning O‘zbekistonga 2017 yil dekabr oyidagi rasmiy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi bitim imzolangan edi.

Shu munosabat bilan joriy yilning 2-may kuni Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi prezidenti M.S.Djumataev boshchiligidagi delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumiga tashrif buyurdi.

Mehmonlarni FA prezidenti B.S.Yuldashev, bosh ilmiy kotibi va vitse-prezidentlari kutib oldi hamda ikki davlat o‘rtasida ilm-fanni rivojlantirish, yangi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab olish bo‘yicha muzokaralar olib borishdi.

Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi delegatsiyasi tashrifi davom etadi.